

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004856>

INDO-YEVROPA TILLARINING QIYOSIY TAHLILI

Allanova Muhayyo Jumanazar qizi

Chorshanbiyeva Nafosat Komilovna

Ro‘zibayeva Kamila Qulmurod qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hind-Yevropa tillari oilasiga kiruvchi sanskrit, lotin va qadimgi yunon tillari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqli tomonlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, fonetika, morfologiya, sintaksis, ildiz, grammatik qurilish, Hind-Yevropa.

Tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy nazariyasi – tillarning tarixiy taraqqiyoti va ularning bir-biriga yaqinligini o‘rganish maqsadida tillarni qiyoslashga asoslangan tilshunoslik yondashuvidir. Bu nazariya asosida tillarning bir-biriga o‘xshashligi, ularning umumiy ildizga ega ekanligi va turli davrlarda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lganligini aniqlash uchun tahlillar olib boriladi.

Bu sohaning asosiy maqsadlari quyidagilardir

1. Tillarning kelib chiqishini o‘rganish–bunda biz tillarning qanday rivojlanganini, qanday umumiy manbalardan kelib chiqqanini aniqlashga yordam beradi.

2. Fonetik va morfologik o‘zgarishlarini aniqlash–bu qismida biz tillarning tovushlar tizimini va grammatik qurilishida tarixiy davr mobaynida yuz bergen o‘zgarishlar o‘rganiladi.

3. Tillarning qarindoshligini aniqlash–biz bu qismda tillarning bir biriga qanday qarindoshligi bir ekanligini o‘rganamiz masalan: turkiy tillar oilasiga qaysi tillar kirishi va ularning bir biriga qanday yaqinligi bir ekanligini o‘rganadi.

Hind-Yevropa tillari dunyodagi eng katta va eng keng tarqalgan til oilalaridan biri hisoblanadi. Ushbu til oilasi Yevropa, Janubiy va G‘arbiy Osiyo hamda Shimoliy va Janubiy Amerika mintaqalarida keng tarqalgan tillarni o‘z ichiga oladi. Hind-Yevropa tillaridan tahminan 3,5 milionga yaqin insonlar foydalanib kelmoqda. Bu til oilasi tarixiy jihatdan eng qadimgi yozma manbalarga ega va tilshunoslar tomonidan eng ko‘p o‘rganilgan til oilalaridan biridir.

Sanskrit, lotin va qadimgi yunon tillari eng avvalo bir xil til oilasiga kirishi jihatidan ya’ni Indo-Yevropa tillari oilasiga mansubli tomonidan bir biriga o‘xshaydi. Bu tillar orasidagi o‘xhashliklar asosan fonetik, morfologik, sintaksis va leksik sohalardir. Misol uchun:

1. Fonetik o‘xhashliklar

Tovush tizimi: Dunyoga keng tarqalgan hindyevropa tillari oilasining shakillanishida Sanskrit tilining jarangdorligi, fonetikasi bilan bog‘liq bo‘lib silavyan, qadimgi arman, frakiy, alban, roman tillariga buyuk ko‘chish davri natijasida keng ta’sir o‘tkazgan. Sanskrit, lotin va qadimgi yunon tillarida ko‘pgina undosh va unli tovushlar o‘xhashdir. Masalan, [p], [t], [k] tovushlari har uchala tilda ham mavjud va ma’lum so‘zlarda aynan shu tovushlar ishlatiladi.

Unli tovushlarning almashishi: Hind-Evropa tillariga xos bo‘lgan unli tovushlar almashuvi (masalan, sanskritda “a”, lotinda “e”, yunon tilida “o”) kuzatiladi. Masalan, sanskritcha “pad” (oyoq) so‘zi lotinda “pes”, yunon tilida esa “pod” tarzida ifodalanadi.

2. Morfologik o‘xhashliklar

Kasrlar tizimi: Ular hammasida yetti a yoki oltita kasr mavjud bo‘lgan, shu jumladan Nominativ, Genitiv, Dativ, Akkuzativ, Ablativ kabi tushumlar bir xil ma’noda ishlatilgan. Masalan: Sanskrit: “nṛ” (odam) so‘zining nominativi “nṛs”, genitivi “nṛṇās”.

Lotin: “homo” (odam) so‘zining nominativi “homo”, genitivi “hominis”.

Qadimgi yunon: “anthropos” (odam) so‘zining nominativi “anthropos”, genitivi “anthropou”.

Fe'l konjugatsiyasi: Uchala tilda ham fe'lning shaxsga, songa va zamonga ko'ra o'zgartirilishi (konjugatsiya) umumiy tamoyillarga ega. Masalan, uchinchi shaxs birlik zamon ko'rsatkichlari o'xshash bo'lgan:

.Sanskrit: "bhavati" (u bo'ladi).

Lotin: "est" (u bor).

Yunon: "esti" (u bor).

3.Leksik o'xshashliklar

Ko'pgina asosiy so'zlar, ayniqsa qarindoshlik, raqamlar, tana qismlari va tabiat hodisalari bilan bog'liq so'zlar uchala tilga o'xshash. Misollar:

Ota:

Sanskrit: pitar,Lotin: pater,Qadimgi yunon: patēr

Oyoq:

Sanskrit: pad,Lotin: pes,Qadimgi yunon: pous (pod-)

Uch:

Sanskrit: trayas,Lotin: tres,Qadimgi yunon: treis

Bu so'zlarning o'xshashligi ularning umumiy kelib chiqishi va o'zaklarining bir xil ekanligidan dalolat beradi.

4.Sintaktik o'xshashliklar

Uchala til ham erkin so'z tartibiga ega bo'lgan. Bu tillarda so'zlar ma'noni ifodalash uchun qat'iy tartibda bo'lmasa ham, kasr va tushumlarning o'zgarishi asosida ma'no anglashilgan. Masalan, gapdagi so'zlarning tartibi unchalik muhim emas, lekin so'zning o'zi qaysi kasrda ekanligi asosiy ma'no ko'rsatkichidir.

5.Hind-Yevropa ildizlari

Sanskrit, lotin va yunon tillaridagi ko'plab so'zlar bir xil ildizga ega. Hind-Yevropa til oilasidagi ko'plab ildiz so'zlar, xususan, raqamlar, qarindoshlik atamalari va kundalik hayotga oid tushunchalar, o'xshash shaklda uchraydi. Bu so'zlar evolyutsiya jarayonida farqlangan bo'lsa-da, ularning o'zaklari bir xil.

Qadimgi yunon, lotin va sanskrit tillari o'rtasidao'xshashlikari bilan bir qatorda bir nechta asosiy farqlar mavjud. Bu tillar o'ziga xos fonetik, grammatik va lingvistik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

1.Kelib chiqishi va hududi:

Qadimgi yunon tili Yunoniston va Egey dengizi hududida gaplashilgan va Gomer, Platon, Aristotel kabi muhim shaxslarning asarlarida qo‘llangan.

Lotin tili qadimiy hind-yevropa tillariga xos, uni xett tili,hind-eron,kilt tillari bilan yaqinlashtiruvchi xususi-yatlarni saqlab qolgan. Asosiy fonetik jihatlari unda unlilar chuzikli-gining fonologi k farqlanishiga egaligi, urg‘u so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushmasligi, undoshlarning kuchsizlanib borishi kabilardan iborat.Lotin tili dastlab Italiya yarim orolida yashagan rimliklar tili bo‘lib, Rim imperiyasi davrida keng tarqalgan. Lotin tili keyinchalik romantik tillarning (fransuz, italyan, ispan va boshqalar) asosi bo‘ldi.

Sanskrit tili Hindistonning qadimgi diniy va ilmiy tili bo‘lib, asosan hind falsafasi, diniy matnlar (Rigveda, Mahabharata, Ramayana) va qadimgi Hindiston madaniyatida ishlatilgan.

2.Alifbo va yozuv:

Qadimgi yunon tili o‘ziga xos yunon alifbosidan foydalangan. Bu alifbo keyinchalik kirill va lotin alifbosi uchun asos bo‘ldi.

Lotin tili lotin alifbosidan foydalangan, bu esa bugungi kunda ko‘pchilik zamonaviy tillar, jumladan ingliz tilining asosiy yozuv tizimi hisoblanadi.

Sanskrit tili Devanagari alifbosida yozilgan. Bu yozuv tizimi hozirgi kunda hind va boshqa hind tillari uchun ishlatiladi.

3.Fonologiya (tovush tizimi):

Qadimgi yunon va lotin tillari o‘rtasida tovush tizimida biroz o‘xshashliklar bo‘lsa-da, sanskrit tilida juda murakkab fonetik tizim mavjud bo‘lib, undosh va unli tovushlar keng turli qoidalar asosida ishlatilgan.

Sanskrit tilida turli xil undosh tovushlarning keng turlari, jumladan, nafasli va nafasiz tovushlar mavjud.

4.Grammatika:

Qadimgi yunon va lotin tillari ko‘p hollarda flektiv tillar bo‘lib, so‘zlarning shakli ma’noni ifodalash uchun o‘zgarib turadi. Ular jins, tuslanish, kelishik va son kategoriylariga ega.

Sanskrit tili ham flektiv tillar turkumiga kiradi, lekin uning grammatikasi o‘ziga xos bo‘lib, yetti kelishik va uchta son turini o‘z ichiga oladi.

5.Madaniy ahamiyati:

Qadimgi yunon tili falsafa, san’at va fan sohalarida katta ta’sir ko‘rsatgan. Yunon falsafasi va ilm-fani g‘arb madaniyatiga asos bo‘lgan.

Lotin tili G‘arb diniy va huquqiy merosida katta rol o‘ynagan. Rim katolik cherkovi va o‘rta asrlardagi Evropa universitetlarida asosiy tili sifatida ishlataligani.

Sanskrit tili Hindistonning diniy va falsafiy adabiyoti, ayniqsa hinduizm va buddizm matnlarining asosi bo‘lgan¹.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Ushbu tillar bir-biridan juda farq qilsa-da, ularning har biri o‘z madaniyati va tarixida chuqur iz qoldirgan va global miqyosda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.Bu tillarning asosiy o‘xshaligi bir umumiylilikka ega ekanligi va bundan tashqari bu o‘xhashlikari sababli biz Indo-Yevropa til oilasidagi dastlabki til shakllaridan habardor bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Holmanova.Z. “Tilshunoslikka kirish”
2. Inlibrary.uz
3. Haydarov. A. “Etimalogiya”
4. Arxiv.uz

¹ htmlkabancskp